

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

BOZOROVA O'G'LOY HIKMAT QIZI

**RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING INTELLEKTUAL
VA BILISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

**Pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi
avtoreferati mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по педагогическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on pedagogical sciences**

Bozorova O'g'iloy Hikmat qizi

Raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish
salohiyatini rivojlantirish..... 3

Бозорова Угиллой Хикмат кизи

Развитие интеллектуального и познавательного потенциала
студентов в условиях цифрового образования..... 21

Bozorova Ugiloy Hikmat kizi

Development of students' intellectual and cognitive potential in the
context of digital education 43

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 48

**CHIRCHIQ DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.01/2025.27.12. Ped.04.03 RAQAMLI
ILMIY KENGASH**

GULISTON DAVLAT UNIVERSITETI

BOZOROVA O'G'ILoy HIKMAT QIZI

**RAQAMLI TA'LIM SHAROITIDA TALABALARNING INTELLEKTUAL
VA BILISH SALOHİYATINI RIVOJLANTIRISH**

13.00.06 – Raqamli ta'lim nazariyasi va metodikasi

**PEDAGOGIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Chirchiq – 2026

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2026.2.Phd/Ped385-raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Guliston davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengashning veb-sahifasida (www.cspi.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Djumabayev G'ulomjon Xalillayevich
texnika fanlar doktori (DSc), dotsent

Rasmiy opponentlar:

Fayziyeva Maxbubaxon Raximjonovna
pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

Sariyev Rustam Bobomurodovich
pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Yetakchi tashkilot:

Andijon davlat pedagogika instituti

Dissertatsiya himoyasi Chirchiq davlat pedagogika universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Phd 01/2025.27.12. Ped.04.03 raqamli ilmiy kengashning 2026-yil "11" 06 kuni soat 12⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel: (+998)70-712-27-55; faks: (+998)70-712-45-41; e-mail: tvchdpi@cspu.uz).

Dissertatsiya bilan Chirchiq davlat pedagogika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (506 raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 111720, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Amir Temur ko'chasi, 104-uy. Tel.: (998) 70-712-27-55; faks: (+998) 70-712-45-41

Dissertatsiya avtoreferati 2026-yil « 01 » 06 kuni tarqatildi.

(2026-yil « 01 » 06 dagi 23 raqamli reestr bayonnomasi).



F.U.Qodirova
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash raisi,
p.f.d. (DSc), professor

I.D.Qodirov
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash kotibi,
p.f.b.f.d. (PhD), dotsent

D.A.Ximmataliyev
Ilmiy darajalar beruvchi
Ilmiy kengash qoshidagi
ilmiy seminar raisi p.f.d.
(DSc), professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda bo'lajak mutaxassislarning kasbga doir bilimlari, amaliy ko'nikmalarini raqamli ta'lim sharoitida rivojlantirish bo'yicha innovatsion metodik strategiyalar amaliyotga joriy etilgan. Bunda talabalarning mustaqil o'rganish va kasbiy rivojlanish jarayonini raqamli tahlillar sintezida modifikatsiyalash dolzarb masala sanaladi. UNESCOning "2030-yilgacha mo'ljallangan global ta'lim konsepsiyasi"da ta'lim sohasida "Butun umr davomida sifatli ta'lim olish imkonini yaratish" ustuvor yo'nalish sifatida belgilangan. Oliy ta'limda ixtisoslik modullarini raqamli va pedagogik texnologiyalar integratsiyasida o'qitish talabalarning kasbga doir bilimlarini chuqurlashtirishda, metodik ko'nikma va malakalarini rivojlantirishda, axborot-kommunikativ kompetensiyalarini shakllantirishda yetakchi omil sanaladi. Modullarga oid nazariy topshiriqlar, metodik keyslarni akademik jihatdan darajalash, moslashuvchan dizaynda yaxlit kontentda taqdim etishning metodik ta'minotini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Dunyoning yetakchi oliy ta'lim muassasalari ilmiy tadqiqot markazlarida bo'lajak mutaxassislarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish raqamli ta'lim amaliyotiga tayyorgarligini takomillashtirishga doir ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Talabalarning individual rivojlanish trayektoriyasini davriy diagnostika asosida shakllantirishning muhim komponenti intellektual va bilish salohiyati mezonini hisoblanadi. AQSh, Janubiy Koreya, Yaponiya va Singapur kabi mamlakatlarda talabalarning kognitiv va intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv dasturlari, raqamli o'quv platformalari hamda innovatsion baholash tizimlari samarali yo'lga qo'yilgan. Bugungi axborotlashgan jamiyatda ta'lim jarayonini raqamlashtirish nafaqat o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga, balki talabalarning bilish faoliyatini chuqurlashtirish, ularning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy izlanishga bo'lgan qiziqishini rag'batlantirishga xizmat qiladi.

Mamlakatimizda bo'lajak mutaxassislarni kasbiy amaliyotga raqamli resurslar integratsiyasida tayyorlashning samarali usul va mexanizmlarini tatbiq etish orqali ta'lim samaradorligini oshirish bo'yicha me'yoriy asoslar takomillashtirilgan. "Ma'lumotlarni qayta ishlash hamda sun'iy intellektga asoslangan loyihalarni ishga tushirish uchun texnik infratuzilma yaratish, ijtimoiy soha va iqtisodiyot tarmoqlarida mazkur yo'nalishdagi ustuvor loyihalarni amalga oshirish, sun'iy intellekt texnologiyalaridan foydalanish bo'yicha aholining bilim va ko'nikmalarini oshirish, kadrlar salohiyatini rivojlantirish"-vazifalari belgilab berilgan. Talabalarning tayanch kompetensiyalari, intellektual salohiyatini ijtimoiy buyurtma talablari asosida rivojlantirish, o'quv jarayonini raqamlashtirishda raqamli ta'lim texnologiyalarining imkoniyatlari kengdir. Bunda talabalarning nazariy bilimlar, kasbiy ko'nikma va malakalarini intellektual ta'lim resurslari modifikatsiyalari asosida rivojlantirish dolzarblilik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-son "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020-yil 5-oktabrdagi PF-6079-son

“Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora tadbirlarini belgilash to‘g‘risida”¹, 2020-yil 6-noyabrda PF-6108-son “O‘zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta’lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”², 2025-yil 28-apreldagi PF-73-son “Pedagog kadrlar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 6-oktabrdagi PQ-4851-son “Axborot texnologiyalari sohasida ta’lim tizimini yanada takomillashtirish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish va ularni IT-industriya bilan integratsiya qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2025-yil 28-apreldagi PQ-152-son “Ta’lim sifatini va samaradorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorlari hamda boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur tadqiqot ishi O‘zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalar rivojlanishining I “Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlantirishda innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari” ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimizda raqamli ta’lim tizimini rivojlantirish, ta’lim jarayoniga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng tatbiq etish masalalari bir qator olimlar tomonidan ilmiy jihatdan chuqur o‘rganilgan. Jumladan, A.A.Abduqodirov, U.Sh.Begimqulov, N.A.Qayumova, X.Sh.Kadirov, I.G‘.Choriyev, S.A.Abduraxmanova, N.V.Nosirov, D.P.Nazarova, J.T.Mannobov, S.Y.Rajabova, B.B.Djalolov kabi olimlarning ilmiy izlanishlarida raqamli pedagogika, elektron ta’lim muhitining afzalliklari, talabalarda mustaqil fikrlash va ijodiy tafakkurni rivojlantirish imkoniyatlari yoritilgan. Mazkur ishlar natijasida o‘quv jarayonini raqamlashtirish, elektron o‘quv resurslarini yaratish, virtual laboratoriyalar va interaktiv platformalar orqali talabalarning bilim olish faoliyatini faollashtirish bo‘yicha muhim ilmiy tavsiyalar ishlab chiqilgan. Shunga qaramay, hozirgi davrda talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish jarayonini raqamli muhit sharoitida kompleks pedagogik yondashuv asosida tashkil etish masalasi hanuz to‘liq o‘rganilmaganligicha qolmoqda.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlarida ham ushbu yo‘nalishda qator izlanishlar olib borilgan. Masalan, rus olimlari O.V.Baykova, M.V.Kopirina, Y.T.Xamidullin va N.V.Startsevaning ilmiy ishlari raqamli ta’lim platformalarini loyihalash, tarmoq ta’lim tizimlarining didaktik imkoniyatlari hamda talabalarning

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-oktabrdagi “Raqamli O‘zbekiston-2030 strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlarini [belgilash](https://lex.uz/docs/-5030957) to‘g‘risida”gi PF-6079-son farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-5030957>

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son Farmoni // Qonunchilik ma’lumotlari milliy bazasi, <https://lex.uz/docs/-5841063>

bilish faoliyatini faollashtirish mexanizmlarini tahlil qilishga bag'ishlangan. Sh.Toleubekov va A.Niyazbekova esa raqamli texnologiyalarni umumta'lim jarayoniga integratsiya qilishning pedagogik va metodik asoslarini yoritib berganlar.

Xorijiy tadqiqotchilar J.Anderson, T.Bates, D.Laurillard, M.Ally, C.Bonk va boshqalar raqamli ta'limda interaktiv muhitlarning talabalarning intellektual rivojiga ta'siri, ularning bilish faoliyatini individuallashtirish hamda raqamli kompetensiyalarni shakllantirish mexanizmlarini chuqur tahlil qilganlar.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Guliston davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlar rejasining 561624-EPP. "Raqamli ta'lim muhitida malakali yetuk kadrlarini tayyorlash" (2023-2026-yillar) mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning metodik imkoniyatlarini takomillashtirishga doir taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlarini ochib berish;

raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish modelini takomillashtirish;

raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish;

talabalarda intellektual va bilish salohiyatining rivojlanganligini baholash mezonlarini takomillashtirish, samaradorlikni raqamli va pedagogik texnologiyalar integratsiyasida ta'minlashni ilmiy jihatdan asoslash.

Tadqiqotning obykti sifatida raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish jarayoni tanlab olingan. Tajriba-sinov ishlarida Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universiteti hamda Buxoro davlat universitetlaridan jami 360 nafar talabalar ishtirok etdi.

Tadqiqotning predmetini raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning mazmuni, shakl, usul va texnologiyalari hamda raqamli vositalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqot jarayonida raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishga oid ilmiy-uslubiy manbalarni tahlil qilish, pedagogik kuzatuv, suhbat, anketa, so'rovnoma, pedagogik eksperiment hamda olingan natijalarga matematik-statistik tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari akademik idrokni jadallashtiruvchi integrativ ta'sir bosqichlarida personal diagnostika instrumentlarini individual ta'lim tamoyillari ustuvorligida differensial qo'llash asosida ochib berilgan;

intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning metodik modeli ko'p funktsionallik kontekstida talabalarning o'zlashtirish bo'shliqlarini tezkor aniqlash va korreksiyalashga qaratilgan raqamli-metodik algoritmnini axborotlarning hajmi va dizayniga ko'ra modifikatsiyalangan ta'lim kontentlariga pedagogik dizayn elementlarini akademik darajalanishga ko'ra refleksiv sintez ustuvorligida kiritish asosida takomillashtirilgan:

talabalarda intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish texnologiyalari "Syllabus" nomli platformada (<https://syllabus.matin.uz/>) kasbiy topshiriqlar konstruksiyasini kognitiv impulsda optimallashtirish hamda individual rivojlanish xaritasiga kasbiy eruditsiya va amaliy ko'nikmalar hamohangligini ta'minlash asosida takomillashtirilgan:

talabalarda intellektual va bilish salohiyatining rivojlanishi davriy diagnostika natijalari sintezida ma'lumotlarni idrok etish va qayta ishlash intervallarini mustaqil o'rganish va raqamli faoliyat kombinatsiyalarida individual belgilash orqali dalillangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari:

talabalarda kasbga doir nazariy bilimlarni egallash hamda metodik mahoratni o'zlashtirishga bo'lgan motivatsiyani oshirishga xizmat qiluvchi "Syllabus" platformasi ishlab chiqilgan va amaliyotga joriy etilgan.

talabalarining ixtisoslikka oid bilimlarini umumiy pedagogik modullar integratsiyasida rivojlantirishga mo'ljallangan topshiriqlarning adaptiv kontenti shakllantirilgan va mustaqil ta'limga generatsiya qilingan.

o'quv materiallarini tezkor idrok qilish hamda axborotlar bilan ishlashga intensiv tayyorlashni ko'zda tutuvchi metodik ishlanmalarni o'zida aks ettirgan "Matematika" nomli o'quv qo'llanma ishlab chiqilgan.

Talabalarda intellektual va bilish salohiyatining rivojlanganligini baholashga mo'ljallangan individual rivojlanish xaritasi indikatorlari raqamli ta'lim paradigmatlari ustuvorligi asosida takomillashtirilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi qo'llanilgan yondashuv, metodlar hamda nazariy ma'lumotlarning rasmiy manbalardan olinganligi, milliy va xorijiy tajribalarga asoslangan empirik o'rganishlar asosida keltirilgan tahlil natijalari hamda tajriba-sinov ishlarining samaradorligi va erishilgan natijalarning matematik-statistik usullar vositasida asoslanganligi, xulosa va tavsiyalarning amaliyotga joriy qilinganligi, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati "talabalarining intellektual salohiyatini rivojlantirish" tushunchasini mazmun-mohiyati, intellektual salohiyatning umumiy strukturasi, ta'limni axborotlashtirish sharoitida intellektual salohiyatni rivojlantirishning pedagogik-psixologik omillari aniqlanganligi va zamonaviy axborot-dasturiy ta'minotning intellektual salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirib foydalanish imkoniyatlarining asoslanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati talabalarining intellektual salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan iSpring Quiz Maker ilovasidan foydalanishga doir

uslubiy tavsiyalar, intellektual salohiyatni rivojlantirish mezonlari, ko'rsatkichlari, ishlab chiqilgan dasturiy ta'minot hamda interfaol amaliy mashg'ulotlar ishlanmalaridan foydalanish mumkinligi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirishning nazariy-pedagogik asoslarini takomillashtirish bo'yicha ilmiy natijalar asosida:

raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning pedagogik-psixologik xususiyatlari akademik idrokni jadallashtiruvchi integrativ ta'sir bosqichlarida personal diagnostika instrumentlarini individual ta'lim tamoyillari ustuvorligida differensial qo'llashga oid tavsiyalari "Matematika" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirilgan (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 4-mart 2024-yildagi 55-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 429416-raqamli guvohnoma). Natijada, talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirishning mezonlari va ko'rsatkichlari aniqlashtirilgan;

intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning metodik modeli ko'p funksionallik kontekstida talabalarning o'zlashtirish bo'shliqlarini tezkor aniqlash va korreksiyalashga qaratilgan raqamli-metodik algoritmni axborotlarning hajmi va dizayniga ko'ra modifikatsiyalangan ta'lim kontentlariga pedagogik dizayn elementlarini akademik darajalanishga ko'ra refleksiv sintez ustuvorligida kiritishga oid takliflari "Algebra" o'quv qo'llanmasi mazmuniga singdirildi (Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 7-oktyabr 2025-yildagi 387-son buyrug'i bilan tasdiqlangan 769454-son guvohnoma). Natijada, umumta'lim fanlarini intellektual salohiyatni rivojlantirishga yo'naltirib o'qitishning intensivligi ta'minlangan;

talabalarda intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish texnologiyalari "Syllabus" nomli platformada kasbiy topshiriqlar konstruksiyasini kognitiv impulsda optimallashtirish hamda individual rivojlanish xaritasiga kasbiy eruditsiya va amaliy ko'nikmalar hamohangligini ta'minlashga doir uslubiy tavsiyalaridan "Yoshlar" telekanalining ijodiy guruhi tomonidan tayyorlangan "Mikrofon sizniki" podkasti, "Rostini ayting" tok-shousi, "Maxsus reportaj" ko'rsatuvlarining syujet materiallarini tayyorlashda foydalanilgan (O'zbekiston milliy teleradio kompaniyasining 2026-yil 4-apreldagi № 14-01-77-son ma'lumotnomasi). Natijada, talabalar intellektual salohiyatini rivojlantirishning dasturiy-texnik komponentini takomillashtirishga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobsiyasi. Tadqiqot natijalari 6 ta respublika va 3 ta xalqaro ilmiy-amaliy konferensiyalarda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 20 ta ilmiy-uslubiy ish, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasi tomonidan doktorlik dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini e'lon qilish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 11 ta maqola, shundan 5 tasi respublika va 6 tasi xorijiy jurnallarda nashr qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat bo'lib, dissertatsiyaning asosiy matni 135 sahifani tashkil etgan.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqot mavzusining dolzarbligi va zarurati asoslangan, tadqiqotning maqsad va vazifalari, shuningdek, obyekti va predmeti, ishning O'zbekiston Respublikasi fan va texnologiyalarining ustuvor yo'nalishlariga bog'liqligi ko'rsatilgan hamda tadqiqotning ilmiy yangiligi, amaliy natijalari, natijalarning ishonchliligi, ilmiy va amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy etilganligi, e'lon qilinganligi, dissertatsiya ishining tuzilishi va hajmi bo'yicha ma'lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning **“Raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning nazariy–metodologik asoslari”** deb nomlangan birinchi bobida tadqiqotning mohiyati, mazmuni va tarkibiy tuzilishi tizimli ravishda yoritilgan. Unda “intellektual va bilish” tushunchasi an'anaviy bilimlar yig'indisidan kengroq mazmunda talqin qilinib, shaxsning fikrlash madaniyati, analitik va tanqidiy tafakkuri, refleksiv yondashuvi hamda ijodiy faoliyatni amalga oshirish qobiliyatlarini o'zida mujassam etuvchi kompleks integrativ sifat sifatida ilmiy asoslab berilgan.

Zamonaviy ta'lim tizimida raqamli muhit bo'lajak o'qituvchilarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishda muhim omil sifatida e'tirof etilmoqda. Rivojlangan mamlakatlar tajribasida qo'llanilayotgan raqamli o'quv platformalari, virtual laboratoriyalar, sun'iy intellektga asoslangan ta'lim tizimlari hamda interaktiv simulyatsiyalar talabalarning kognitiv faolligini oshirishda samarali vosita sifatida namoyon bo'lmoqda. Bunday texnologiyalar ta'lim jarayonini individuallashtirish, o'quv materialini chuqur anglash hamda murakkab bilimlarni modellashtirish imkonini berib, talabaning mustaqil fikrlash faoliyatini faollashtiradi.

Aynan shu jihatlar ilmiy adabiyotlarda ham o'z aksini topgan bo'lib, mazkur yondashuvlarning nazariy asoslari xorijiy va MDH olimlari tomonidan izchil yoritilgan. Jumladan, Tony Bates ta'kidlashicha, “raqamli ta'lim texnologiyalari talabalarga bilimni tayyor shaklda emas, balki mustaqil izlab topish va uni tahlil qilish imkonini beradi”, bu esa talabaning passiv bilim qabul qiluvchidan faol bilish subyektiga aylanishini ifodalaydi. Shuningdek, O.V. Baykova tomonidan qayd etilganidek, “raqamli ta'lim platformalari kognitiv faoliyatni faollashtiruvchi muhit bo'lib, unda talaba analitik fikrlash va muammoli vaziyatlarni hal etishga o'rganadi”.

Shu tariqa, amaliy tajriba va ilmiy qarashlarning o'zaro uyg'unligi shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhiti faqat texnologik vositalar yig'indisi emas, balki talabaning mustaqil fikrlashi, tahliliy yondashuvi va ijodiy faolligini rivojlantiruvchi yaxlit pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Mazkur yo'nalish mahalliy olimlar tomonidan ham izchil tadqiq etilgan. A.A.Abduqodirov “axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash o'quv jarayonining samaradorligini oshirib, talabalarda mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni shakllantiradi”, deb ta'kidlaydi. U.Sh.Begimqulov “elektron ta'lim resurslari talabaning bilish faolligini oshiruvchi asosiy didaktik vositalardan biri” ekanligini asoslaydi. N.V.Nosirovning fikricha, “raqamli muhit talabaning tahliliy

fikrlashini rivojlantirib, bilimni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi". S.Y.Rajabova esa "interaktiv texnologiyalar asosida tashkil etilgan ta'lim jarayoni talabani ijodiy tafakkurini rivojlantiradi va o'quv motivatsiyasini kuchaytiradi", deya e'tirof etadi.

Shunday qilib, yuqoridagi ilmiy yondashuvlar va tajribalar umumlashmasi shuni ko'rsatadiki, raqamli ta'lim muhiti nafaqat axborotni yetkazish vositasi, balki shaxsning intellektual va kognitiv rivojlanishini ta'minlovchi kompleks pedagogik tizim sifatida namoyon bo'ladi.

Raqamli ta'lim sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish masalasi zamonaviy pedagogikaning dolzarb muammolaridan biri sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu muammo, avvalo, ta'lim jarayonida axborot texnologiyalaridan foydalanishning yetarli darajada tizimli va maqsadga yo'naltirilmaganligi bilan izohlanadi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, ko'plab hollarda bo'lajak o'qituvchilarda raqamli vositalardan foydalanish ko'nikmalari yuzaki xarakterga ega bo'lib, ular texnologiyani chuqur pedagogik maqsadlar bilan uyg'unlashtira olmaydilar. Shu sababli, axborot texnologiyalariga asoslangan integrativ o'qitish modeli ishlab chiqilib, unda raqamli vositalardan ongli va samarali foydalanish mexanizmlari asoslab berildi. Natijada bo'lajak o'qituvchilarning raqamli kompetensiyalari sezilarli darajada rivojlandi.

Shuningdek, ta'lim jarayonida intellektual va bilish faoliyatini faollashtiruvchi metodlarning yetishmasligi ham muhim pedagogik muammo sifatida aniqlangan. Mazkur muammoni bartaraf etish maqsadida muammoli ta'lim, tahliliy va algoritmik fikrlashga yo'naltirilgan faol pedagogik texnologiyalar joriy etildi. Ushbu yondashuv talabalarning mustaqil fikrlash, tahlil qilish va ilmiy asosda xulosa chiqarish qobiliyatlarini rivojlantirishga xizmat qildi. Shu bilan birga, "intellektual salohiyat" tushunchasining pedagogik amaliyotda turlicha talqin qilinishi ham ilmiy muammo sifatida o'rganildi. Tadqiqot doirasida intellekt o'zaro bog'langan psixik jarayonlar (diqqat, xotira, tafakkur, tasavvur) majmui sifatida asoslanib, uning rivojlanishiga yo'naltirilgan yagona metodologik yondashuv ishlab chiqildi.

Bundan tashqari, talabalarda axborotni turli shakllarda tahlil qilish ko'nikmalarining sust rivojlanganligi, shaxsga yo'naltirilgan ta'limning yetarli darajada tashkil etilmaganligi hamda xalqaro baholash dasturlari bilan metodik uzviylikning yetarli emasligi kabi muammolar aniqlangan. Natijada talabalarning axborot bilan ishlash madaniyati, tizimli va kreativ fikrlashi, real vaziyatlarda bilimni qo'llash kompetensiyalari rivojlandi. Shuningdek, intellektual salohiyatni faqat bilim darajasi bilan emas, balki dinamik va refleksiv jarayon sifatida talqin etish orqali uning ta'lim jarayonidagi strategik ahamiyati asoslab berildi.

Raqamli ta'lim sharoitida kognitiv kompetensiyani rivojlantirish samaradorligi muayyan pedagogik va psixologik shart-sharoitlarning tizimli ravishda ta'minlanishiga bog'liq. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kognitiv rivojlanish faqat bilim berish bilan emas, balki o'quv jarayonini interaktiv, muammoli va refleksiv asosda tashkil etish orqali amalga oshiriladi. Shu nuqtai nazardan, ta'lim jarayonida muammoli vaziyatlar yaratish, talabalarning mustaqil

izlanish faoliyatini ragʻbatlantirish hamda ularni tahliliy va tanqidiy fikrlashga yoʻnaltirish kognitiv kompetensiyani shakllantirishning muhim pedagogik sharti hisoblanadi. Raqamli platformalar, virtual muhit va interaktiv vositalardan foydalanish esa oʻquv jarayonining individuallashtirishini taʼminlab, har bir talabaning bilish imkoniyatlarini ochib berishga xizmat qiladi.

Pedagogik jihatdan muhim shartlardan yana biri — taʼlim jarayonida refleksiv faoliyatni tashkil etishdir. Talabaning oʻz fikrlash jarayonini anglash, baholash va takomillashtirishga yoʻnaltirilgan refleksiya uning metakognitiv koʻnikmalarini rivojlantiradi. Shu bilan birga, taʼlim mazmunini strukturalashtirish, axborotni turli shakllarda (matn, jadval, diagramma, grafik) taqdim etish va ularni oʻzaro konvertatsiya qilishga asoslangan topshiriqlar tizimi talabalarda tizimli tafakkur va axborot bilan ishlash madaniyatini shakllantiradi. Mazkur yondashuv bilimlarni chuqur anglash, umumlashtirish va amaliyotda qoʻllash imkoniyatlarini kengaytiradi.

Psixologik jihatdan esa kognitiv kompetensiyaning rivojlanishi diqqat, xotira, tafakkur va tasavvur kabi psixik jarayonlarning uygʻun faoliyati bilan belgilanadi. Bu jarayonda oʻquv motivatsiyasi, ijobiy emotsional muhit va psixologik xavfsizlik muhim ahamiyat kasb etadi. Raqamli taʼlim muhitida ortiqcha axborot yuklamasi, diqqatning tarqoqligi va texnologiyaga qaramlik kabi salbiy omillarni kamaytirish, aksincha, talabalarda oʻz-oʻzini boshqarish, mustaqil qaror qabul qilish va refleksiv yondashuvni rivojlantirish zarur. Shu bois kognitiv kompetensiyani rivojlantirishga yoʻnaltirilgan pedagogik–psixologik shart-sharoitlar integrativ xarakterga ega boʻlib, ular taʼlim jarayonining mazmuni, metodlari va texnologiyalari uygʻunligida namoyon boʻladi.

Shunday qilib, raqamli taʼlim sharoitida kognitiv kompetensiyani rivojlantirish talabaning shaxsiy imkoniyatlarini toʻliq roʻyobga chiqarishga, uning tafakkur faoliyatini faollashtirishga hamda zamonaviy bilimlar jamiyatida faol ishtirok etishga tayyorlashga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik tizim sifatida namoyon boʻladi.

Dissertatsiyaning **“Boʻlajak oʻqituvchilarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning didaktik asoslari”** deb nomlangan ikkinchi bobida boʻlajak oʻqituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning nazariy-didaktik asoslari hamda uni amalga oshirish mexanizmlari tizimli va izchil ravishda yoritilgan .

Boʻlajak oʻqituvchilarning kognitiv faoliyatini faollashtirish tamoyillari ilmiy asosda tahlil qilinib, ular tizimlilik, faollik, individuallashtirish, refleksivlik va integrativlik prinsiplari asosida asoslab berilgan. Mazkur tamoyillar kognitiv jarayonlarni faollashtirish, talabalarning mustaqil fikrlashini rivojlantirish hamda taʼlim jarayonini samarali tashkil etishda muhim didaktik asos sifatida talqin etilgan.

Ushbu tamoyillar asosida tashkil etilgan taʼlim jarayoni talabalarning mustaqil fikrlash, muammoli vaziyatlarni tahlil qilish, mantiqiy xulosa chiqarish hamda oʻz faoliyatini baholash koʻnikmalarini rivojlantirishga xizmat qilishi asoslab berilgan. Natijada kognitiv faoliyatni faollashtirish oʻquv jarayonining markaziy didaktik mexanizmi sifatida talqin etiladi. Jadvalda keltirilgan tamoyillar

bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirish jarayonining metodologik asosini tashkil etib, ularning o'zaro uyg'unligi shaxsning bilish faoliyatini faollashtirish, refleksiv tafakkur va innovatsion yondashuvlarni shakllantirishga xizmat qiladi. Ayniqsa, metakognitiv boshqaruv va refleksiv tahlil tamoyillarining qo'llanilishi bilimlarning ongli va barqaror o'zlashtirilishini ta'minlaydi. Natijada bo'lajak o'qituvchi raqamli ta'lim muhitida faqat bilimlarni qabul qiluvchi emas, balki ularni tahlil qiluvchi, qayta yaratuvchi va kasbiy faoliyatda samarali qo'llovchi intellektual subyekt sifatida shakllanadi.

1-jadval.

Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishning tamoyillari


Tamoyil nomi	Tamoyil mazmuni
Faol bilish tamoyili	Talabanning bilish jarayonida mustaqil izlanish, tahlil va sintez faoliyatini kuchaytirish hamda bilimlarni tayyor shaklda emas, balki faol kognitiv jarayonlar orqali egallashini ta'minlash
Motivatsion faollashtirish tamoyili	Bilishga nisbatan ichki ehtiyoj, kasbiy qiziqish va ijobiy emotsional holatni shakllantirish orqali kognitiv faoliyat barqarorligini ta'minlash
Integrativ yondashuv tamoyili	Fanlararo bog'liqlik asosida bilimlarni yaxlit tizim sifatida o'zlashtirish hamda nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligini ta'minlash
Refleksiv tahlil tamoyili	Talabanning o'z fikrlash jarayonini anglash, baholash va takomillashtirish orqali kognitiv faoliyatni ongli boshqarish imkoniyatini rivojlantirish
Innovatsion faoliyat tamoyili	Zamonaviy raqamli texnologiyalar va pedagogik yechimlar asosida bilimlarni amaliyotga tatbiq etish va yangilik yaratishga yo'naltirish
Metakognitiv boshqaruv tamoyili	Bilish jarayonini rejalashtirish, nazorat qilish va baholash orqali kognitiv faoliyatning izchilligi va maqsadlilikini ta'minlash

Mazkur nazariy yondashuvlarni amaliy jihatdan ta'minlash maqsadida elektron ta'lim platformasi (<https://syllabus.matin.uz/>) ishlab chiqildi. Ushbu elektron ta'lim platformasi raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirishga yo'naltirilgan bo'lib, Axborot tizimlari va texnologiyalari ta'lim yo'nalishi o'quv rejasidagi 1-semestr fanlarining o'quv materiallari modullashtirilgan, interaktiv va tizimli tarzda taqdim etilgan.

#	FAN NOMI	O'QUV YILI	SEMESTR	KREDIT	O'QITUVCHI	AHALLAR
1	Xorijiy til	2025-2026	1-semestr	4 kredit	Baloev Arslan Sabirjonovich	Ko'rish
2	Akademik yozuv	2025-2026	1-semestr	4 kredit	Davlatova Adiba Raxmatovna	Ko'rish
3	Dinshunoslik	2025-2026	1-semestr	4 kredit	Norova Nazokat Odiljonova	Ko'rish
4	Dasturlash1	2025-2026	1-semestr	4 kredit	Rajabov Oybek Tog'aymurod o'g'li	Ko'rish
5	Hisob (Calculus)1	2025-2026	1-semestr	4 kredit	Bozorova O'g'liy Hikmat qiti	Ko'rish
6	Fizika1	2025-2026	1-semestr	4 kredit	Adimova Oltinor Dilmaratovna	Ko'rish

1-rasm. Elektron ta'lim platformasi

Yaratilgan platforma oliy ta'lim tizimida raqamli resurslardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytiradi hamda o'quv jarayonining samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. U talabalarda kognitiv faollikni kuchaytirish, o'quv materiallarini mustaqil o'zlashtirish, ma'lumotlarni izlash, saralash va tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish uchun qulay elektron muhit yaratadi.




2-rasm. Elektron ta'lim platformasi

2-rasmida berilgan ma'lumotlar "Axborot tizimlari va texnologiyalari" ta'lim yo'nalishining bakalavriat bosqichida o'qitiladigan majburiy fanlardan biri sifatida belgilanganini hamda mazkur fan kunduzgi ta'lim shakliga mo'ljallanganini ko'rsatadi. O'quv rejada fan uchun olti kredit ajratilgan bo'lib, bu 180 akademik soatlik umumiy yuklamani anglatadi. Sillabusda fanlar ro'yxati, dars beruvchi o'qituvchilar va tegishli o'quv yilining aniq qayd etilgani ta'lim jarayonini shaffof, tartibli va me'yoriy talablar asosida yuritish imkonini beradi.

Elektron muhit talabalarining mustaqil bilim olish, axborotni izlash, tahlil qilish va refleksiya qilish faoliyatini faollashtirib, bilish jarayonini boshqariladigan hamda individuallashtirilgan shaklga olib keladi. Interfaol topshiriqlar, vizual materiallar va qulay navigatsiya imkoniyatlari esa bilimlarni bosqichma-bosqich egallash va ularni amaliyotga transfer qilishni ta'minlaydi.

Mazkur jarayonni yanada samarali tashkil etishda maxsus dasturiy vositalarning o'рни alohida ahamiyat kasb etadi. Xususan, iSpring Quiz Maker dasturi asosida tashkil etilgan interfaol nazorat va baholash jarayonlari talabalarining refleksiv hamda metakognitiv faoliyatini faollashtirib, kognitiv kompetensiyaning izchil rivojlanishini ta'minlaydi. Bu esa baholash jarayonini oddiy nazorat vositasidan rivojlantiruvchi pedagogik mexanizmga aylantiradi. Tadqiqot doirasida o'quvchilarda intellektual salohiyatni rivojlantirishga qaratilgan ta'lim platformalaridan foydalanishning didaktik imkoniyatlari chuqur o'rganildi. Jarayon davomida raqamli ta'lim vositalarining nafaqat axborot yetkazish, balki bilish faoliyatini boshqarish va rivojlantirishdagi funksional roli ilmiy asosda yoritildi.

Natijaviy tahlillar shuni ko'rsatdiki, raqamli ta'lim sharoitida kognitiv kompetensiyani shakllantirishga ta'sir etuvchi pedagogik, psixologik va texnologik omillar o'zaro uzviy bog'liq holda namoyon bo'ladi. Xususan, o'quv motivatsiyasi, interaktiv ta'lim muhiti, axborot bilan ishlash madaniyati, refleksiv va metakognitiv faoliyat hamda individual ta'lim trayektoriyalarini tashkil etish kognitiv rivojlanishning muhim omillari sifatida asoslandi. Shu bilan birga, raqamli texnologiyalardan foydalanish jarayonida yuzaga keladigan psixologik omillarni hisobga olish va ularni boshqarish zarurati ham ilmiy jihatdan asoslab berildi.



3-rasm. Ta'limni axborotlashtirish sharoitida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish modeli

Mazkur omillar va didaktik yondashuvlarning uzviy uyg'unligi asosida raqamli ta'lim sharoitida talabalarning intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish modeli ishlab chiqildi. Ushbu model kognitiv, refleksiv, metakognitiv va motivatsion komponentlarning integratsiyasiga asoslanib, o'quv jarayonini

samarali tashkil etish mexanizmlarini qamrab oladi. Model doirasida o'quv faoliyatining bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlar, didaktik vositalar hamda natijaviy ko'rsatkichlar aniqlashtirilib, u talabalarning kognitiv faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvini rivojlantirishga xizmat qiluvchi kompleks pedagogik tizim sifatida taklif etildi.

Model kognitiv, refleksiv, metakognitiv va motivatsion komponentlar integratsiyasiga asoslanib, ta'lim jarayonini samarali tashkil etishning kompleks tizimi sifatida tavsiflanadi. Model doirasida o'quv faoliyatini tashkil etish bosqichlari, pedagogik shart-sharoitlar, didaktik vositalar va natijaviy ko'rsatkichlar aniqlashtirilgan bo'lib, u talabalarning kognitiv faolligini oshirish, mustaqil fikrlash va ijodiy yondashuvni rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali mexanizm sifatida taklif etilgan.

Ta'limni axborotlashtirish sharoitida talabalarning intellektual salohiyatini rivojlantirish modelning amaliy joriy etilishi raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning intellektual va bilish faoliyatini tizimli ravishda rivojlantirish, ularning kognitiv kompetensiyasini bosqichma-bosqich shakllantirish hamda ta'lim jarayonining samaradorligini oshirish imkonini beradi. Shu bilan birga, model talabani shaxsiy imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yo'naltirilgan individual yondashuvni ta'minlab, uning refleksiv va metakognitiv faoliyatini faollashtirishga xizmat qiladi.

Umuman olganda, ikkinchi bobda ishlab chiqilgan didaktik asoslar va mexanizmlar raqamli ta'lim muhitida bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyasini rivojlantirishning yaxlit va izchil pedagogik tizimini tashkil etadi.

Dissertatsiyaning **“Intellektual va bilish salohiyatini rivojlantirish natijalarini tahlil qilish va samaradorligini baholash”** deb nomlangan uchinchi bobida tadqiqot doirasida ishlab chiqilgan nazariy va metodik yondashuvlarning amaliy natijalari, ularning samaradorligi hamda ilmiy asoslangan baholash mexanizmlari yoritilgan. Mazkur bobda ilgari surilgan didaktik asoslar va ishlab chiqilgan modelning amaliy samaradorligini aniqlashga alohida e'tibor qaratilib, kognitiv kompetensiyaning shakllanish darajasi ilmiy asosda baholangan. Shu nuqtai nazardan, bo'lajak o'qituvchilarning kognitiv kompetensiyalarini aniqlash va baholash metodikasi ishlab chiqilib, unda kognitiv rivojlanish darajasini aniqlashga xizmat qiluvchi mezonlar, ko'rsatkichlar va diagnostik vositalar tizimi asoslab berilgan.

Kognitiv kompetensiya darajasini baholash motivatsion, kognitiv, refleksiv va amaliy faoliyat komponentlari asosida amalga oshirilishi taklif etilib, tadqiqot jarayonida pedagogik kuzatuv, test, so'rovnoma, suhbat hamda ekspert baholash usullaridan kompleks foydalanildi. Bu esa talabalarning intellektual va bilish salohiyatidagi o'zgarishlarni tizimli ravishda aniqlash va ularni ilmiy jihatdan asoslash imkonini berdi.

Pedagogik tajriba-sinov ishlari 2023–2026 o'quv yillari davomida Chirchiq davlat pedagogika universiteti, Guliston davlat universiteti hamda Buxoro davlat universitetida olib borilib, unda jami 360 nafar talaba ishtirok etdi. Tanlov asosida shakllantirilgan tajriba va nazorat guruhlar orqali raqamli ta'lim vositalariga

integratsiyalashgan metodik tizim amaliy sinovdan o'tkazildi. Tajriba jarayonida asosiy e'tibor talabalarda raqamli muhitda axborotni tahlil qilish ko'nikmalarini shakllantirish, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qilish, refleksiv va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish hamda nazariy bilimlarni virtual va real amaliyot bilan integratsiyalashga qaratildi.

Tajriba-sinov ishlari uch bosqichda tashkil etildi. Diagnostik bosqichda talabalarning dastlabki intellektual va bilish salohiyati darajasi aniqlanib, ularning raqamli resurslardan foydalanish kompetensiyasi, axborotni qayta ishlash tezligi va mantiqiy tahlil ko'nikmalari baholandi. Shakllantiruvchi bosqichda raqamli pedagogik texnologiyalar, interaktiv topshiriqlar, virtual laboratoriyalar hamda refleksiv platformalar asosida mashg'ulotlar olib borilib, talabalarning bilish faoliyati faol, mustaqil va tahliliy xarakter kasb etdi. Nazorat bosqichida esa yakuniy natijalar tahlil qilinib, tajriba guruhlarida intellektual va kognitiv ko'rsatkichlarning sezilarli o'sishi qayd etildi.

2-jadval

Bo'lajak o'qituvchilarning intellektual va bilish salohiyatini baholash mezonlari va indikatorlari

Mezonlar	Indikatorlar (aniq ko'rsatkichlar)	Baholash metodlari va mexanizmlari
Bilish-faollik mezon	O'quv mashg'ulotlarida faol ishtirok etishi; muammoli savollarga qiziqish bildirishi; mustaqil javob bera olishi; bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ichki motivatsiyasi	Kuzatish; anketa; bilish faolligini aniqlovchi testlar; suhbat
Tahliliy-fikrlash mezon	Axborotni tahlil qila olishi; sabab-oqibat bog'lanishlarini aniqlashi; mantiqiy xulosa chiqarishi; bilimlarni yangi vaziyatlarda qo'llay olishi	Tahliliy topshiriqlar; muammoli vaziyatlar; test; ekspert baholash
Amaliy-intellektual mezon	Nazariy bilimlarni amaliy mashg'ulotlarda qo'llay olishi; muammoli vazifalarni hal etishi; raqamli ta'lim vositalaridan samarali foydalanishi; ijodiy yondashuvni namoyon etishi	Amaliy topshiriqlar; shakllantiruvchi eksperiment; loyiha ishlari; kuzatish
Refleksiv-baholash mezon	O'z bilim va faoliyatini tahlil qila olishi; xatolarni aniqlashi va tuzatishi; o'z-o'zini baholashi; refleksiv xulosalar chiqara olishi	Refleksiv so'rovnomalar; o'z-o'zini baholash varaqalari; suhbat; portfoliolar tahlili
